



SOCIALITY AND ASSOCIATION OF LANGUAGE, THEIR RELATIONSHIP

Rasulova Difuza Shamshidinovna

Doctoral student of Karshi State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17044391>

ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

Linguistic associations,
language socialization,
socio-cognitive approach,
cultural concept
(happiness), comparative
associative analysis,
collective consciousness and
values.

ABSTRACT

*This study explains the fact that associativity is a typologically universal phenomenon, but significant differences in the content and frequency of associations formed in different language communities towards the same object are observed with socio-cognitive factors. The theoretical basis is taken from the approaches of sociocognitive linguistics and cultural linguistics; on the empirical basis, the associative space of the concept *happiness* in the perception of Russian, Belarusian, Bulgarian and Ukrainian speakers is analyzed in a comparative manner based on the materials of the "Slavic Associative Dictionary". The data show how the concept is valued in the national consciousness and collective memory through the highest frequency responses of the *sovchi-reaksiya* pairs (e.g., есть, кахання, радость, викилек): while in the Russian spiritual space *happiness* is affirmed by the attribute of "existence", in Belarusians it is semantically associated with "love", in Bulgarians with "joy/happiness", and in Ukrainians with the paradigm of "great value". The results confirm that the socialization of language is reflected in linguistic associations, that is, the associative field is calibrated with the values, worldview, religious-cultural experience and configuration of social consciousness in society. The study is of methodological importance for linguistic conceptology, psycholinguistics and comparative cultural studies, and allows for its use in the practice of building associative dictionaries, lexical-semantic modeling and intercultural communication.*

TILNING IJTIMOIYLLIGI VA ASSOTSIATIVLLIGI, ULARNING O'ZARO ALOQASI

Rasulova Difuza Shamshidinovna

Qarshi davlat universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17044391>



ARTICLE INFO

Received: 25th August 2025

Accepted: 30th August 2025

Online: 31st August 2025

KEYWORDS

Lisoniy assotsiatsiyalar, tilning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy-kognitiv yondashuv, madaniy konsept (baxt), qiyosiy assotsiativ tahlil, kollektiv ong va qadriyatlar.

ABSTRACT

*Ushbu tadqiqotda assotsiativlikning tipologik jihatdan universal hodisa ekani, biroq bir xil obyektga nisbatan turli til jamoalarida hosil bo'ladigan assotsiatsiyalar mazmuni va chastotasida sezilarli farqlar kuzatilishi ijtimoiy-kognitiv omillar bilan izohlanadi. Nazariy asos sifatida sotsiokognitiv lingvistika va madaniy lingvistika yondashuvlari qabul qilinadi; empirik asosda esa "Slavyan assotsiativ lug'ati" materiallari bo'yicha *baxt* konseptining rus, belorus, bolgar va ukrain til egalari idrokidagi assotsiativ maydoni qiyosiy tahlil qilinadi. Ma'lumotlar *sovchi-reaksiya* juftliklarining eng yuqori chastotali javoblari (mas., есть, каханне, падом, велуке) orqali konseptning milliy ong va kollektiv xotirada qanday qiymatlashtirilganini ko'rsatadi: rus ma'naviy makonida *baxt* "mavjudlik" atributi bilan tasdiqlansa, beloruslarda u "sevgi" bilan, bolgarlarda "xursandlik/shodlik" bilan, ukrainlarda esa "buyuk qadriyat" paradigmasi bilan semantik bog'lanadi. Natijalar tilning ijtimoiylashuvi lisoniy assotsiatsiyalarda aks etishini, ya'ni assotsiativ maydon jamiyatdagi qadriyatlar, dunyoqarash, diniy-madaniy tajriba hamda ijtimoiy ong konfiguratsiyasi bilan kalibrlanishini tasdiqlaydi. Tadqiqot lisoniy konseptologiya, psixolingvistika va qiyosiy madaniyatshunoslik uchun metodologik ahamiyatga ega bo'lib, assotsiativ lug'atlar tuzish, leksik-semantik modellashirish va madaniyatlararo kommunikatsiya amaliyotida qo'llanish imkonini beradi.*

Til ko'p qirrali, shu bilan birga, ko'p vazifali ruhiy-mental, ijtimoiy, madaniy hodisadir. Tilning mavjudligi, yashashi, taraqqiyoti, kelajagi, avvalo, ijtimoiy omillarga bog'liq. Ijtimoiylik omili bilan bog'langan har qanday til, uning barcha vazifaviy ko'rinishlari ijtimoiylik xususiyatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda tilning ijtimoiylik tabiatga egaligi fan olami uchun yangilik emas. Tilning bu xususiyati haqidagi qarashlar tilning jamiyat bilan aloqasi, tildagi o'zgarishlarning jamiyatdagi o'zgarishlarga bog'liqligi haqidagi nazariy qarashlar asosida shakllangan. Tilning ijtimoiylik tabiati hech qachon tilshunoslar e'tiboridan chetda qolgan emas. XX asrning birinchi yarmida tilning paydo bo'lishi, rivojlanishi masalasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan dunyo tilshunoslari – Y.D.Polivanov, L.P.Yakubinskiy, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, G.O.Vinokur, F.Bryuno, A.Meye, P.Lafarg, M.Koen, Sh.Balli, A.Seshe, J.Vandries, B.Gavranek, V.Mateziuslar tilning ijtimoiylik tabiatiga egaligini ilmiy asoslashdi. Jumladan, I.A.Boduen de Kurtene til faqat kishilik jamiyatidagina mavjud bo'lganligi sababli unda ruhiy tomondan tashqari, doimo



ijtimoiy tomonni ham qayd etish lozimligi, tilshunoslikning asosi bo'lib nafaqat individual psixologiya, balki sotsiologiya ham xizmat qilishi kerakligini ta'kidlagan edi¹.

Tilning ijtimoiyligi xususiyati, avvalo, uning til jamoasiga daxldor bo'lishida namoyon bo'ladi. "Lisoniy jamoa – bu umumiy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar asosida uyushgan, kundalik hayotda bir-biri bilan hamda turli ijtimoiy institutlar bilan bir til yoki ushbu hamjamiyatda tarqalgan turli tillar yordamida bevosita va bilvosita aloqalarni amalga oshiradigan kishilar jamoasidir"². Tilning ayni shu lisoniy jamoa hayoti bilan bevosita bog'liqligi, uning bu jamoada ijtimoiy vazifa bajarishi, ya'ni insonlarning o'zaro muloqotga kirishuvini ta'minlashi hamda amal qilishi uchun undan foydalanuvchi ushbu jamoaning mavjud bo'lishi shartligi, o'z navbatida, jamoa hayotini tilsiz tasavvur qilib bo'lmasligi kabilar tilning ijtimoiy tabiatga egaligini asoslovchi omillar sanaladi. Z.Aliqulov, S.Boymirzaevlar qayd etganlaridek, "... til jamiyatda paydo bo'lganidan boshlab ijtimoiy xarakterga ega. Chunki til kishilar jamoasida, ijtimoiy mehnat jarayonida yuzaga kelgan bo'lib, o'zaro aloqa bog'lash, fikr almashishga xizmat qiladi. Til faqat jamiyatda, odamlar o'rtasidagina mavjud bo'lgan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri jamiyat taqdiri bilan bog'langan. Jamiyat yo'q ekan, til ham bo'lmaydi"³. Anglashiladiki, tilning ijtimoiyligi insonning biologik xususiyati asosida shakllanmaydi, balki jamiyatda bajaradigan ijtimoiy vazifasi orqali belgilanadi. Manbalarda o'z lisoniy jamoasidan ajralib qolib, hayvonlar orasida yashagan go'dak qizlarning so'zlash qobiliyatidan mahrum bo'lganliklari haqida keltirilgan ma'lumotlar⁴ tilning jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lmasligini dalillash bilan birga, insonning ham faqat kishilar jamoasida, jamiyat a'zolari bilan muloqotida ijtimoiylashuvini ko'rsatadi.

Tadqiqotchi S.A.Romanovanning fikricha, til ijtimoiy hodisa, uni ijtimoiy o'zaro ta'sirdan tashqarida, ya'ni boshqa odamlar bilan muloqotsiz egallab bo'lmaydi, u kishilar tajribasini o'zlashtirish va tashkil etish jarayonida ishtirok etadi⁵. Anglashiladiki, til jamiyat hayoti bilan bog'liq, usiz mavjud bo'lmaydi. Ammo rus olimi Y.D. Polivanov qayd etganidek, tilning jamiyat hayoti va taraqqiyotiga qaramligini e'tirof etish tilning tabiiy-tarixiy "rivojlanish nazariyalari" ahamiyatini aslo inkor etmaydi va bekor qilmaydi⁶.

Tilning ijtimoiylik tabiati undan foydalanuvchi etnik jamoalarning tilga ta'sirida ham namoyon bo'ladi. Etnik jamoalar etnik ong, dunyoqarash, o'ziga xos tafakkur, madaniyatga ega kishilar guruhi bo'lib, ular umumiy hudud, umumiy til va madaniyatga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu etnik guruhlar uchun yagona umumiy tilning mavjudligi til ijtimoiyligini ko'rsatuvchi omillardan biridir. Masalan, o'zbek millati uchun amalda o'zbek tilining, qozoq millati uchun qozoq tilining, qirg'izlar uchun qirg'iz tilining qaror topganligi tilning muayyan etnik jamoalarga daxldor ekanligini ko'rsatadi.

¹ Бодуэн де Куртенэ И. А. Избранные труды по общему языкознанию. – М., 1963. Т. 2. – С. 15.

² Беликов В.И. Крысин Л.П. Социоллингвистика. – М., 2001. – С. 11.

³ Аликулов З., Боймирзаева С. Социоллингвистика. – Самарканд, 2010. – Б. 19.

⁴ Bu haqida qarang. Ирискулов М. Тилшunoslikka kirish. – Toshkent: Ukituvchi, 1992. – Б. 9.

⁵ Романова С.А. Язык как отражение социальных изменений в обществе: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2002. – 174 с.

⁶ Поливанов Е.Д. Задачи социальной диалектологии русского языка // Родной язык и литература в трудовой школе. – М., 1928. – № 2. – С.4–5.



Tilning ijtimoiyligi tabiati insoniyat, jamiyat hayotidagi roli, vazifasi bilan bog'liq holda asoslanar ekan, uning taraqqiyoti, kelajagi ham ayni shu kishilik jamiyatining tilga bo'lgan munosabati, unda yaratilgan ijtimoiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

A.Berdialiyev til insonning kommunikativ ehtiyoji uchun xizmat qiluvchi hodisa ekanligi, ammo kommunikativ ehtiyoj uchun xizmat qilishi tilning chin ma'nodagi tabiatini belgilay olmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu tilning vazifalaridan biridir, xolos. Tilning ham ijtimoiy hodisalarning boshqalaridan farqlovchi o'z xususiyati mavjud, bu uning semiotikaga aloqador tomonidir⁷. Darhaqiqat, tilning ijtimoiylik belgisi uning asosiy va birlamchi xususiyati emas. Til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birga, ayni jamiyat hayotini, undagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarni aks ettiruvchi vosita sifatida ham ahamiyatlidir. Demak, til nafaqat jamiyat a'zolariga xizmat qiluvchi, ular uchun kommunikativ ehtiyoj jisoblangan aloqa quroli, balki ijtimoiy-madaniy hayot ko'zgusi ham hisoblanadi.

O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab dunyo tilshunosligida sotsialingvistik aspektdagi tadqiqotlarga e'tibor kuchayib, tilning ijtimoiy vazifalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Sotsiolingvistikada o'rganiladigan muammolar, uning vazifalarini belgilab bergan amerikalik tilshunos U.Braytning fikricha, ushbu sohaning vazifasi til va ijtimoiy tuzilmalarda birga yuz beradigan ijtimoiy xarakterdagi o'zgarishlarni aniqlashdan iborat⁸.

Tilshunoslik taraqqiyotining keyingi davrlarida tilning ijtimoiyligi muammosini o'rganishda til va jamiyat munosabatlarini ochib berish bilan chegaralanmay, til belgisining ijtimoiy kontekstda va ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq holda qo'llanishi masalasi tadqiqiga ham e'tibor qaratildi⁹. Natijada tilshunoslikda tilning ijtimoiylashuvi muammosini o'rganishga turli yondashuvlar yuzaga keldi.

Til ijtimoiyligi masalasining tadqiqi shaxsga xos ijtimoiy sifatlarning tilga ko'chishi masalasini ham qamrab oladi. Inson shaxs sifatida jamiyatda shakllanar ekan, u endi ijtimoiy subyekt maqomiga ega bo'ladi. Ijtimoiy shaxsga xos xususiyatlarni uning nutqi orqali aks ettiruvchi til bu jihatdan ham ijtimoiylashadi.

Kishilarning jamiyat hayotiga mos ravishda ijtimoiylashuvi ularning hayotida bajaradigan ijtimoiy rollari, vazifalarida aniq ko'zga tashlanadi. Kishilar ijtimoiy rollari asosida jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradilar, ularni saqlab qoladilar. Ijtimoiylashuv kishilarning hayotda yashab ketishi, jamiyatda o'z o'rini topishida muhim ahamiyatga ega.

Tilning ijtimoiylashuvi esa tilning jamiyat bilan aloqasi, kishilarning ijtimoiy xususiyatlari aks etgan nutqi, ijtimoiy kontekst bilangina belgilanmaydi. Tilning hududiy jihatdan farqli dialektal belgilarga ega bo'lishi, ijtimoiy tabaqalanishi, og'zaki va yozma, adabiy va so'zlashuv tili shakllarida qo'llanishi va ular o'rtasidagi farqlar ham uning ijtimoiylashuviga olib keladi.

⁷ Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. – Тошкент, 2019. – Б. 17.

⁸ Bright W. Introduction – “Sociolinguistics”. The Hague. 1966. – P.11; Shu muallif. Параметры социолингвистики // Новое в лингвистике. Вып. 7. Социолингвистика. – М., 1975.

⁹ Вахтин Н.Б., Головкин Е.В. Социолингвистика и социология языка. – Санкт-Петербург: Издательский центр “Гуманитарная академия”, Европейский университет в Санкт-Петербурге, 2004. – 336 с.; Беликов И.В., Крысин Л. П. Социолингвистика. Учебник для бакалавриата и магистратуры. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2016. – 337 с.; Арефьев А.Л. Социология языка. Национальные и иностранные языки в системе образования / под редакцией Г.В. Осипова. – М.: Издательство Юрайт, 2024. – 302 с.; Арефьев А.Л. Социология языка. Русский язык. Современное состояние и тенденции распространения в мире / под редакцией Г. В. Осипова. – М.: Издательство Юрайт, 2025. – 301 с.



Anglashiladiki, tilning ijtimoiyligi tabiati keng tushuncha. Bu tushuncha tilning hamda undan foydalanuvchi kishilarning, jamiyatning ijtimoiylashuvi xususiyatini qarab oladi.

Tilning assotsiativlik xususiyati ijtimoiyligi belgisi bilan bevosita bog'liq. Tilning barcha xususiyatlari ichida assotsiativlik belgisi alohida o'rin tutadi. Tilning bu belgisi ijtimoiylik kabi universal xarakterda bo'lib, dunyo tillarining barchasida kuzatiladi. Biror bir til, uning birliklari talaffuz qilinishi, eslanishining o'zidayoq tilning assotsiativ vazifasi ishga tushadi. Assotsiativlik til birliklarining inson ongida bir-birini tiklashi, xotirasiga tushirishi yoki birining turtkisi natijasida boshqasining hosil bo'lishi jarayonini aks ettiradi.

Ma'lumki, *assotsiatsiya* termini (lotincha "*associatio*" so'zi anglatgan "biriktirish, qo'shish, bir-biri bilan bog'lash" ma'nosidagi so'zdan olingan) ko'p ma'noli bo'lib, tilshunoslikda til birliklarining inson ongida o'ziga yondosh yoki u bilan o'xshashlik, zidlik, ketma-ketlik munosabatida bo'lgan birliklarni tiklashi, "o'ziga qo'shib olishi" xususiyatiga nisbatan ishlatiladi.

Manbalarda *assotsiatsiya* terminini psixologik assotsionizmga 1690-yilda ingliz filosofi, psixolog J.Lokk olib kirganligi qayd etiladi¹⁰. U qadimgi davr yunon filsoflari Aristotel va Platonlar tomonidan ilgari surilgan insonda yuzaga kelgan biror bir g'oya, fikr unda shunga o'xshash boshqa g'oya, fikrni hosil qilishi haqidagi ilmiy xulosadan inson ruhiyatida kechadigan psixik jarayonlar, hissiyotlar, tasavvurlar o'rtasida yuz beradigan aloqa-bog'lanishlar sababini tushuntirishda unumli foydalangan. J.Lokk insonda biror bir g'oya, hissiyot yuzaga kelganda assotsiatsiya hodisasi asosida tasodifan boshqa g'oya, hissiyot hosil bo'ladi deb hisoblagan¹¹. Uning assotsiatsiya haqidagi ushbu xulosasi keyinchalik tilshunoslikda ham tildagi assotsiativ bog'lanishlarni o'rganishga yo'l ochgan.

Assotsiatsiya hodisasi mohiyatan "yodga tushirish, o'ziga o'xshashini yoniga chaqirish, o'ziga qo'shib olish" mexanizmiga asoslangan bo'lsa-da, uning qanday obyektlar (til, ruhiyat, ong, tafakkur)da kuzatilishiga ko'ra turli fan sohalarida o'ziga xos talqiniga ega. Jumladan, falsafada inson ongida yuzaga kelgan ma'lum bir g'oyalar, fikrlar, qarashlar turtkisi asosida unga o'xshash yangi g'oyalar, qarashlarning hosil bo'lishi yoki mavjudlarining xotirada tiklanishi hodisasiga nisbatan *assotsiatsiya (falsafiy assotsiatsiya)* termini qo'llanadi. Psixologiya sohasida esa insonda yuz bergan o'xshash yoki yondosh psixik jarayonlar – ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, psixik tasavvurlarning qonuniy ravishda bir-birini yodga tushirishi yoki biri ikkinchisini yuzaga keltirishi hodisasiga nisbatan *assotsiatsiya (psixologik assotsiatsiya)* termini ishlatiladi.

Bu ikki fan sohasidan farqli tarzda tilshunoslikda *assotsiatsiya (lisoniy assotsiatsiya)* termini til birliklarining inson ongida bir-biri bilan assotsiativ bog'lanishi, bir til birligi turtkisi asosida ikkinchi til birligining xotirada tiklanishiga nisbatan qo'llanadi. Ayrim tilshunoslar tildagi assotsiatsiyalarni psixologiya, falsafa sohalarida qo'llanadigan assotsiatsiya hodisasidan farqlash maqsadida *verbal assotsiatsiya* terminidan foydalanishni tavsiya qilishadi¹². D.Lutfullayevaning ta'kidlashicha, "inson ongida hosil bo'lgan bir-birini eslatuvchi psixik

¹⁰ Философский энциклопедический словарь // http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy/1789.

¹¹ Локк Ж. Опыт о человеческом разумении. В 4-х томах. (Перевод с англ. А.Н.Савина). – М.: Мысль, 1985. – С. 450-459.

¹² Ермолова М.В. Ассоциативные семантические модели выражения запрета в немецком языке (на материале пословиц и поговорок) // Известия Российского гос.пед.ун-та имени А.И.Герцена. 2009. – №106. – С.137.



tasavvur, g'oyalar *psixologik assotsiatsiya* sanaladi. *Lingvistik assotsiatsiyalar* (verbal assotsiatsiyalar) ham til egasining voqelik haqidagi psixologik tasavvuri asosida yuzaga keladi, ammo bu tasavvur tilda bir-biri bilan muayyan belgisiga ko'ra aloqada bo'lgan aniq lisoniy birliklar orqali reallashadi. Lingvistik assotsiatsiyalar psixologik assotsiatsiyalardan, avvalo, lingvistik mohiyat kasb etishiga ko'ra farq qiladi"¹³. Demak, tilshunoslik sohasi uchun tilning assotsiativligi xususiyatini ochib berish, til birliklarining o'zaro assotsiativ aloqaga kirishuvi qonuniyatlarini aniqlash muhim.

Til assotsiativligi lisoniy birliklar anglatgan predmet, belgi, miqdor, harakat, holat kabilardan iborat "obyekt"ning tashqi olamdagi boshqa obyektlar bilan qo'shnichilik, o'xshashlik munosabatini, til birliklari anglatgan tushunchalarning insonning mazkur obyektlar haqidagi bilimlari va tasavvurlari bilan bog'lanishini aks ettiruvchi konseptual hodisadir. Boshqacha aytganda, til birliklarining assotsiativlik xususiyatining yuzaga chiqishida insonning tashqi olam haqidagi bilim va tasavvurlari muhim o'rin tutadi. Inson til birliklari anglatgan predmetlar, voqea-hodisa, belgi, miqdor, harakat, holat kabilar haqida bilimga ega bo'lmasa, ular haqida biror bir tasavvuri mavjud bo'lmasa, bunday vaziyatda nafaqat ushbu predmetlar, voqelik, harakat, holat va hokazolarga nisbatan, balki ularni ifodalab kelgan til birliklari bo'yicha ham unda hech qanday assotsiatsiya yuzaga kelmaydi. Bu holat tilning assotsiativlik xususiyati insonning tashqi olam haqidagi konseptual bilimlariga tobe ekanligini ko'rsatadi. Masalan, o'zbek tilidagi *palov* so'ziga nisbatan hosil bo'ladigan *taom* javob reaksiyasi sinaluvchilarning ushbu so'z taom nomini anglatishi, bu taom turi haqida bilim va tasavvurlari mavjudligini ko'rsatadi.

Tilning assotsiativlik xususiyati, avvalo, til birliklarining bir-biri bilan semantik, sintaktik, uslubiy, pragmatik aloqalarida yuzaga chiqadi. Masalan, "O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar)"da *belbog'* so'ziga nisbatan berilgan *to'n* (4), *do'ppi* (3), *cho'pon* (3) javob reaksiyalari ushbu so'zlarning *belbog'* so'zi bilan uyadoshlik munosabatiga asoslangan holda hosil bo'lgan. *Qiyiq* (12), *qiyiqcha* (3) javob reaksiyalari¹⁴ esa sinonimik munosabati asosida yuzaga kelgan. Demak, til birliklarining semantik jihatdan yaqinligi yoki aynanligi, bir uyaga birlashuvi ularning assotsiativ aloqasiga yo'l ochadi. Mazkur lug'atda *beqasam* so'ziga nisbatan berilgan *to'n* (91), *mato* (24), *kiyim* (9), *ko'ylak* (3), *chopon* (2), *kamzul* (2), *qiyiqcha* (2), *yaktak* (2) javob reaksiyalari *beqasam* so'zining ushbu so'zlar bilan sintagmatik munosabatga kirishuvi asosida yuzaga kelgan.

Til birliklarida assotsiativlik xususiyatining namoyon bo'lishiga ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri ham kuzatiladi. Masalan, o'zbek tili egalari tomonidan *beqasam* so'ziga nisbatan berilgan *kelin* (8), *odam* (5), *kuyov* (4), *laparchilar* (3), *qo'shiq* (3), *ansambl* (2), *ayol* (2), "Kelinsalom" (2), *Navro'z* (2), *qizlar* (2), *raqqosalar* (2), "Tanovar" (2), *tikuvchi* (2)¹⁵ javob reaksiyalarining hosil bo'lishiga turtki bergan omillarga e'tibor qaratamiz. Bulardan *kelin* (8), *odam* (5), *kuyov* (4), *laparchilar* (3), *ansambl* (2), *ayol* (2), *qizlar* (2), *raqqosalar* (2), *tikuvchi* (2) javob reaksiyalari *beqasam* matosidan foydalanuvchi kishilarni anglatish bilan birga, ularning ijtimoiy rollari (*kelin*, *kuyov*), kasblari (*laparchilar*, *raqqosalar*, *tikuvchi*), jinsi (*ayol*, *qizlar*)ni

¹³ Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – Б. 24.

¹⁴ Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar). – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-natbaa uyi. 2019. – B. 68.

¹⁵ Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. Ko'rsatilgan lug'at. – B. 73.



ham aks ettirgan. Anglashiladiki, tilning assotsiativlik xususiyatining yuzaga chiqishiga, assotsiatsiyalarning qanday xarakterda bo'lishiga tashqi omillar, xususan, ijtimoiy hamda madaniy omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotning avvalgi bobida assotsiativlik barcha tillarda kuzatiluvchi universal xususiyat ekanligi ta'kidlandi. Ushbu hodisa universal xususiyatga ega bo'lsa-da, bir obyektga nisbatan turli til egalarida har xil assotsiatsiyalarning hosil bo'lishi ko'p kuzatiladi. Bu o'rinda assotsiatsiyalarning milliy ong va tafakkur, xalq madaniyati bilan aloqasi namoyon bo'ladi. Bir tushunchani anglatuvchi birlikka nisbatan turli millat vakillarida har xil assotsiatsiyalarning yuzaga kelishi ushbu hodisaning millat, uning dunyoqarashi, ongi, tafakkuri hamda ijtimoiy, madaniy, diniy omillar bilan bog'liq holda hosil bo'lishini ko'rsatadi. Masalan, "Славянский ассоциативный словарь" da rus, belorus, bolgar va ukrain xalqlari tomonidan *счастье, щасц, щастие, щастя (baxt)* so'zlariga berilgan eng yuqori chastotali javob reaksiyalarini qiyoslaymiz: rus tili egalari *счастье* so'ziga eng ko'p *есть* (74), ya'ni "mavjud, bor" javob reaksiyasini; belorus tili egalari *щасц* so'ziga eng ko'p *каханне* (51), ya'ni "sevgi" javob reaksiyasini berishgan; bolgar tili egalari *щастие* so'ziga *радост* (46), ya'ni "xursandlik, shodlik" javob reaksiyasini; ukrain tili egalari esa *щастя* so'ziga *велике* (46), ya'ni "ulug', buyuk" javob reaksiyasini eng ko'p takrorlashgan¹⁶.

Turli millat vakillarining *baxt* so'ziga bergan javob reaksiyalari dunyo tillari uchun assotsiativlik universal xususiyat ekanligini dalillaydi. Ammo javob reaksiyalarining farqlanishi assotsiatsiyalarning ijtimoiy-kognitiv, madaniy omillar (jamoat ijtimoiy ongida *baxt* tushunchasi qanday konsept sifatida o'rin olganligi, til egalarining baxtni qanday tushunishi, uni qanday baholashi, baxtga bo'lgan munosabati kabilar) ta'siriga uchrashini ko'rsatadi. Ruslar tomonidan *счастье (baxt)* so'ziga berilgan *есть (mavjud, bor)* reaksiyasi ularning baxt hissini tuyganliklari, uni mavjud deb hisoblashlarini anglatadi. Belorus tili egalarining *щасц* so'ziga bergan *каханне* (sevgi) javob reaksiyasi ularning baxtni sevgida deb bilishlarini ko'rsatadi. Bolgar tili egalari esa *щастие* deganda xursandlik, shodlik (*радост*)ni tuyadilar. Ukrain tili egalari uchun *щастя* so'zi "ulug', buyuk qadriyat"ni anglatadi.

Anglashiladiki, rus, belorus, bolgar va ukrain xalqlarining baxtni tushunishi o'ziga xos. Bu holat lisoniy assotsiatsiyalarning turli tashqi omillar ta'siriga uchrashi va o'zida bu omillarni aks ettirishini ko'rsatadi. Mana shunday omillardan biri ijtimoiylik omili bo'lib, tildagi assotsiatsiyalar ushbu omil ta'sirida ijtimoiylashadi.

Shunday qilib, til ijtimoiyligi muammosi tadqiqida tilga sotsial omillarning ta'siri va uning ijtimoiylashuvi masalasi qatorida tilda insonga xos ijtimoiy sifatlarining aks etishi, inson assotsiatsiyalarining ijtimoiy tabiati va uning tida voqelanishi masalasini ham o'rganish muhim. Til ijtimoiy omillar ta'siriga beriluvchan, unga qaram bo'lganligi uchun bu holat tilda hosil bo'ladigan lisoniy assotsiatsiyalarning ham ijtimoiylashuviga sabab bo'ladi.

¹⁶ Славянский ассоциативный словарь: русский, белорусский, болгарский / Н.В.Уфимцева, Г.А.Черкасова, Ю.Н.Караулов, Е.Ф.Тарасов. – М., 2004. – С. 232-234.